

ETNOMADANIYAT ATAMASINING KELIB CHIQISHI TARIXIGA OID BA'ZI MA'LUMOTLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548510>

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Alfraganus universiteti Ijtimiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti, PhD

jamolmamanov89@gmail.com

Xafuzullayev Javlon

*Alfraganus universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada “etnomadaniyat” atamasining kelib chiqish tarixi, uning ilmiy muomalaga kirib kelish jarayoni hamda etnologiya, madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari bilan o'zaro aloqasi yoritilgan. Unda “etnos” va “madaniyat” tushunchalarining integratsiyasi natijasida shakllangan yangi ilmiy yo'nalishning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, turli davrlarda olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, ularning nazariy yondashuvlari va hozirgi zamon etnomadaniyat tadqiqotlarining dolzarbligi ko'rib chiqiladi. Maqolada atamaning g'oyaviy ildizlari, tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tadqiqotlardagi o'рни haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar

etnomadaniyat, etnos, madaniyat, tarix, antropologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, ilmiy atama.

Albatta! "Etnomadaniyat" atamasi ikki asosiy so'zdan tashkil topgan: "etno" va "madaniyat". "Etno" (yunoncha ethnos – "xalq", "qabila", "el") xalq, millat yoki etnik guruhni anglatadi. "Madaniyat" esa lotincha cultura so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab "parvarishlash", "o'stirish" ma'nolarini anglatgan, keyinchalik insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasi ma'nosida ishlatila boshlagan.

Shu asosda "etnomadaniyat" degan atama – muayyan xalq yoki etnik guruhga xos bo'lgan madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, urfiy bilimlar va ijtimoiy tajribalar majmuasini ifodalash uchun paydo bo'lgan. “Umuman olganda, “madaniyat”, “etnomadaniyat” kabi tushunchalarning insonlar hayotidagi o'рни, muhim ahamiyat kasb etishiday muhim xususiyatlarini aytib o'tishdan oldin bu tushunchalarning qanday ma'no anglatishi haqida to'xtalib o'tish joiz. Zero bu

xususda ko'plab olimlar turlicha xil fikrlar bildirib o'tishgan bo'lsa-da, g'oyaviy, ma'naviy mohiyati saqlanib qolaveradi."²⁹

Etnomadaniyat tushunchasi ilmiy adabiyotda XIX–XX asrlarda, ayniqsa, antropologiya, etnologiya va madaniyatshunoslik fanlari rivojlanishi jarayonida keng ishlatila boshlandi. Bu sohada dastlabki tadqiqotlar asosan Yevropa va Amerika olimlari tomonidan olib borilgan. Jumladan:

Edward Tylor (XIX asrda yashagan ingliz antropologi) madaniyatni insoniyatning o'zlashtirgan barcha bilimlari, e'tiqodlari, san'atlari, axloqiy me'yorlari va odatlari majmuasi sifatida ta'riflab bergan³⁰.

Franz Boas esa (amerikalik etnolog) har bir xalqning madaniyati o'z tarixiy rivojlanish yo'liga ega ekanligini ta'kidlab, "madaniyatlar nisbiyligi" (relativizm) nazariyasini ilgari surgan.

Bu qarashlar etnomadaniyatni xalqning tarixiy, ijtimoiy, diniy va geografik sharoitlar bilan bog'liq holda shakllangan noyob madaniy tajriba sifatida o'rganishga turtki berdi.

Tabiat naqadar rang-barang bo'lsa, yer yuzidagi xalqlarning etnik ko'rinishi ham shunchalik xilma-xildir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XX asr oxirlarida dunyoda ikki mingdan ortiq elatlar va xalqlar mavjud bo'lgan. Ayrim manbalarda esa bu raqam uch-to'rt ming orasida ekanligi qayd etiladi. Ularning 260 tasini aholisi bir milliondan ortiq bo'lgan yirik xalqlar tashkil etib, jahon aholisining 96 foizini egallaydi. Shu bilan birga, eng kam sonli, ya'ni bir yarim mingga yaqin etnik guruhlar esa umumiy aholining atigi bir foizini tashkil etadi. Jahondagi etnik birliklarning til jihatidan farqlanuvchi soni esa uch mingdan oshadi.

Madaniyat tushunchasi, uning genezisi, falsafiy, sosiologik, antropologik va ijtimoiy-pedagogik jihatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotning mazmuni ham, mezon ham madaniy boyliklar bilan o'lchanishi haqiqatdir. Chunki madaniyat inson faoliyatining mahsulidir. Ammo madaniyatning subekti haqida turli yondashuvlar mavjud bo'lib, bu borada muayyan ilmiy bahslar davom etmoqda. Madaniyat inson faoliyatining mahsuli ekanligi aksioma sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, uning subekti shaxs, ijtimoiy guruh, millat yoki butun xalq ekanligi borasidagi masala ochiq qolmoqda.

Etnomadaniyat tushunchasi etnos (xalq) yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni qamrab oladi. U ijtimoiy faoliyat jarayonida yaratilgan artefaktlarni o'z ichiga olgan holda, betakror kashfiyotlar qilgan shaxslar va ijtimoiy qatlamlarning madaniy meros yaratishdagi o'rniga ham befarq qola olmaydi.

²⁹ Adambayev U. To'rayeva G. Etnomadaniyatning insonlar hayotida tutgan o'rni. Scientific progress. volume 3 | issue 3 | 2022. 1-b.

³⁰ Mamanov J. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2025. 7-b.

Taniqli san'atshunos va faylasuf M.S. Kagan ta'kidlaganidek, "Butunlikni intuitiv sezishdan uning o'ta murakkab va polifunksional tizim ekanini nazariy anglashga o'tish" zarur. Chunki bunday yondashuvsiz moddiy va ma'naviy madaniyat, sivilizatsiya va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik, madaniy faoliyat turlari va ularning shakllari borasidagi ziddiyatli hamda ba'zan ilmiy asoslarga ega bo'lmagan qarashlarning tarqalishining oldini olish mushkul.

Dastlabki etnomadaniy tadqiqotlar qadimgi sayyohlar va harbiy yurish ishtirokchilari tomonidan olib borilgan. Shuningdek, qadimiy tarixchi, faylasuf va tabiatshunos olimlarning asarlarida turli xalqlarning madaniyati va tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Misol uchun, miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asarida turli xalqlarning madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. U o'z asarida O'rta Osiyoda yashagan massagetlar haqida quyidagilarni yozadi: "Massagetlar ko'chmanchi xalq bo'lib, ular piyoda va otda jang qiladilar. Ularning otlari sovut bilan himoyalangan bo'lib, jangda kamon, nayza va sagariy (oy-bolta) kabi qurollardan foydalanadilar. Massagetlarning qurol-aslahalari va jihozlari asosan mis va oltindan tayyorlangan, uy-ro'zg'or buyumlari esa bo'yoq bilan bezatilgan".³¹

Bunday manbalar etnomadaniyat tarixi uchun muhim bo'lsa-da, ularni ushbu fanning shakllanishiga asosiy dalil sifatida qarash noto'g'ri bo'ladi. Chunki etnomadaniyat alohida fan sifatida keyinchalik shakllangan bo'lib, uning asosiy metodologik yondashuvlari va tadqiqot uslublari fanning rivojlanishi jarayonida shakllangan.

O'rta asrlar davrida ham etnomadaniyat bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. X-XI asrlarda yashagan mashhur mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda ko'plab xalqlarning tarixi va madaniy hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar jamlangan.

Umuman olganda, etnomadaniyat mustaqil fan sifatida nisbatan kech shakllangan bo'lsa-da, uning falsafiy, tarixiy va gnoseologik ildizlari juda qadimiydir. Xalq madaniyati, urf-odatlar, an'analari va ma'naviy merosini o'rganish jamiyat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Etnomadaniya tarixi va bu atamaning kelib chiqishi haqid gap ketganda albatta etnologiya fani rivoji katta o'ringa egaligini ta'kidlash lozim. Etnologiya fani vatani Fransiya hisoblanib, XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida shakllangan fandir. Bu fan yer yuzidagi millatlar, xalqlarning kelib chiqishi, etnogenezi (xalqlar tug'ilishi) va madaniy tarixini o'rganish sohasida muhim

³¹ Mamanov J. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2025. 8-b.

yutiqlarga erish. Etnologiya atamasi haqida gapirganda bu sohada katta ilmiy izlanishlarni olib borgan A.Ashirovning quyidagi ta'rifiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, A.Ashirov "Etnologiya fanining nomi ham boshqa ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi yunoncha - etnos (xalq) va logos (fan) so'zlaridan olingan bo'lib, «xalq to'g'risidagi fan» degan ma'noni bildiradi"³² ko'rsatadi. Bu ta'rifdan etnologiya fani xalqlarning kelib chiqishini o'rganuvchi fan ekanligini anglash mumkin. A.Ashirov etnomadaniyat fani tarii haqida ham so'z yuritib "Etnos" so'zi ilk bor qadimgi grek tilidagi manbalarda uchraydi. Tahminan miloddan avvalgi VI - V asrlarda bu so'z kelib chiqishi grek bo'lmagan urug' va qabilalarga nisbatan qo'llanilgan"³³ deb ko'rsatadi. Albatta ko'plab fanning tarixi qadimgi zamon mutafakkirlari ijodida shakllangan. Lekin etnologiya fanini fan darajasiga ko'tarilishi va rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri A.Shavann hisoblanadi. A.Shavanning etnologiya fani doirasidagi xizmatlaridan biri ush atamani birinchi marotaba ilmiy muomalaga 1784 yilda kiritganligidir. Lekin bu fanni fan darajasiga ko'targan va alohida fan sohasi ekanligi g'oyasini ilgari surgan olim fransiyalik Jan Jak Amper hisoblanadi. U 1830 yilda ijtimoiy fanlarni tasnirlash jarayonida ushbu fanlar tarkibiga etnologiya fanini ham kiritadi.

Etnologiya fani tarixini o'rganish borasida A. Ashirov ushbu fanni fanlar doirasida alohida ajralib chiqishini 1839 yilda Fransiyada etnologiya jamiyatining tashkil topishi bilan bog'laydi. Umuman XIX asrning birinchi yarmiga kelib ko'plab shu davrning rivojlangan davrlarlarida etnologiya jamiyatlari o'z ish faoliyatlarini boshlaydi. Xususan, 1842 yilda AQSH Amerika etnologlar jamiyati, 1843 yilda London etnologlar jamiyati, 1846 yilda Rus geograflar jamiyati tuzildi. Bu kabi etnologiyada yangilik va xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganishning kuchayeshi shu davrda mustamlakachilik siyosatining oshib borishi bilan bog'liq edi.³⁴

Etnografiya yunoncha bo'lib, «etnos» - xalq,» grafiya» - tavsiflash degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur fanning metodologik masalalariga bag'ishlangan qator ishlardan ko'rinadiki, «etnologiya» va «etnografiya» tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham to'g'ri emas. Negaki, agar an'anaviy «etnografiya» u yoki bu etnos (etnik birlik)ga oid bo'lgan materiallarni to'plab, tizimlashtirib va ularni ko'proq tavsiflab bersa, «etnologiya» etnos haqidagi barcha ma'lumotlarni nazariy-metodologik jihatdan tahlil qiladi va bu xususta umumiy xulosalar chiqaradi. Demak, «etnologiya» tushunchasi «etnografiya» tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq, balki etnografiya etnologiyaning ma'lum bir qismi, deb aytish mumkin. O'z navbatida

³² Ashirov A. Etnologiya. Darslik, Toshkent: Yangi nashr. 2014. 16-b.

³³ Ashirov A. Etnologiya. Darslik, Toshkent: Yangi nashr. 2014. 16-b.

³⁴ Mamanov J. Etnomadaniyat. O'quv qollanma. Toshkent. Alfraganus universiteti nashriyoti, 2025. 12-b.

shuni ham ta'kidlash joizki, har bir mamlakatda mazkur fanning paydo bo'lish tarixi va nomlanishi o'ziga xos tarixga ega.

Etnomadaniyat o'ziga xos tarixga ega bo'lib, uning shakllanishi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Etnolog olimlarning ko'plab ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insoniyat ibtidoiy davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan barcha bosqichlarda o'zligini anglashga, an'anaviy turmush tarzi, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarini tushunishga intilib kelgan. Ayniqsa, turli elatlar hayoti, ularning etnik xususiyatlari va madaniyatini bilishga doimiy ehtiyoj sezilgan.

Mazkur ehtiyoj natijasida ming yillar davomida turli xalqlar haqida boy ma'lumotlar to'plangan bo'lib, ular davlatlararo munosabatlarni shakllantirishda, tinchlik va o'zaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Hatto qadim zamonlarda ayrim mualliflar ushbu ma'lumotlarni tizimlashtirish, xalqlarni xo'jalik va madaniy jihatdan tasniflashga intilgan. Biroq bu fikrlar ilmiy asosga ega bo'lmaganligi sababli mavhum xarakter kasb etgan.

Etnomadaniyat — ko'p fanlar bilan uzviy bog'liq. Chunki u xalqning madaniy hayotini o'rganadi, bu esa ko'plab sohalarga taalluqli. Misollar:

Antropologiya — odamlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ijtimoiy hayotini o'rganadi. Etnomadaniyat inson jamoalarining urf-odat va turmush tarzini tushunishda antropologiyaga tayanch bo'ladi.

Etnologiya — turli xalqlarning hayoti, madaniyati va an'alarini solishtiradi. Etnomadaniyat — etnologiyaning asosiy tadqiqot obyekti.

Sotsiologiya — jamiyat va ijtimoiy guruhlar hayotini o'rganadi. Etnomadaniyat esa jamiyatdagi etnik guruhlarining ijtimoiy xatti-harakatlarini tushunishga yordam beradi.

Tarix — xalqlarning o'tgan hayoti va rivojlanishini o'rganadi. Etnomadaniyat tarixiy jarayonlarda shakllangan qadriyatlar va urf-odatlarini yoritadi.

Tilshunoslik — til va madaniyat uzviy bog'liq. Etnomadaniyat orqali tilning madaniy jihatlari, masalan, marosim tili, folklor, maqollar va rivoyatlar o'rganiladi.

Madaniyatshunoslik — to'g'ridan-to'g'ri etnomadaniyat bilan bog'liq. Chunki bu fan madaniyatning barcha ko'rinishlarini, shu jumladan etnik madaniyatni ham tahlil qiladi.

Ya'ni, etnomadaniyat — turli fanlar chorrahasida shakllangan va ularni bir-biriga bog'laydigan ko'prik vazifasini o'taydi. Ushbu fan umuminsoniy qadriyatlar, madaniy hamda axloqiy an'alar manbai sifatida e'tirof etiladi.

Har bir xalqning madaniyati uch asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Jahon madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan umummilliy madaniyat.

2. Millat tarkibidagi turli ijtimoiy guruhlar, hududlar, madaniyatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan madaniyat.

3. Turli ijtimoiy guruhlar va hududlar madaniyati.

O'zbek etnomadaniyati jahon madaniyatining tarkibiy qismidir. Ayni paytda uning tarkibida turli hududlar etnomadaniyati mavjud. Masalan, Xorazm etnomadaniyati, Farg'ona vodiysi etnomadaniyati, Qashqadaryo va Surxondaryo etnomadaniyati va hokazo. Etnomadaniyatning asosini qadriyatlar tashkil etadi. P.Sorokin ta'biri bilan aytganda, "Qadriyatlar har qanday madaniyatning asosi va poydevoridir". Etnik qadriyatlarning aksariyatida umuminsoniy qadriyatlar ham aks etadi. Masalan, o'zbek uchun xos bo'lgan mehmondo'stlik qadriyatida umuminsoniy qadriyat ham aks etgan. Farqi shundaki, mehmondo'stlik turli millatlarda turli daraja va shakllarda namoyon bo'ladi. Etnomadaniyat bir tomondan, sosiumning tarkibiy qismi bo'lsa, ikkinchi tomondan, etnos yashaydigan tabiat bilan bevosita aloqador. Shuning uchun ham shimol xalqlari folklorida muzliklar, bepoyon o'rmonlar aks etsa, janub xalqlari og'zaki ijodida sahrolar, cho'llar, quyosh tafti tarannum etiladi. Etnomadaniyatning vujudga kelishi etnogenez bilan parallel va bog'liq tarzda yuz beradi. Etnosning paydo bo'lishi, shakllanishi va tadriji etnomadaniyatda aks etadi. Har bir xalqning etnogenezi o'ziga xos shakl va usulda yuz bergani uchun uning etnomadaniyati ham o'ziga xos bo'ladi. Har qanday etnos boshqa etnoslar ta'sirida va ular bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Hatto orollarda yashovchi qabila va xalqlar ham tashqi dunyodan mutlaqo ajralgan holda rivojlanmaydi. Bu qabila va xalqlar, avvalo, o'zaro, qolaversa, tashqi dunyo ta'sirida rivojlanadi. Xuddi shuningdek, etnomadaniyat ham poliyetnik muhitda, ya'ni ko'p va turli etnoslar madaniyati ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Etnomadaniyatning mavjudligi va rivojlanishi avlodlar o'rtasidagi vorislik orqali ta'minlanadi. Biroq bu vorislik biologik irsiyat bilan emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida, katta avlod tomonidan madaniy an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarini yosh avlodga yetkazish orqali shakllanadi.

Etnomadaniyat o'z ifodasini etnik stereotiplar, an'analar, qadriyatlar va folklorda topadi. Etnik o'zini anglash jarayoni aynan etnomadaniyat asosida shakllanadi. Bu esa etnomadaniyatning xalqlar va millatlar taraqqiyotidagi o'zni naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adambayev U. To'rayeva G. Etnomadaniyatning insonlar hayotida tutgan o'zni. Scientific progress. volume 3 | issue 3 | 2022. 1-b.

2. Mamanov J. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2025. 7-b.
3. Ashirov A. Etnologiya. Darslik, Toshkent: Yangi nashr. 2014. 16-b.